
Dehqonobod MFY: Ravon yo'llar-obod manzillar

* Mamlakatimizda qishloqlar va shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish, xalqimizning hech kimdan kam bo'lmagan holda hayot kechirishini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

🏡 Islohotlar natijasida qishloq joylarda ko'plab zamonaviy ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va servis korxonalari, ta'lim va tibbiyot muassasalari bunyod etilmoqda. Kommunikatsiya tarmoqlari bugungi kun talablari darajasida yangilanmoqda. Qishloqlarimizda na'munaviy loyihalar asosida barcha shart-sharoit va imkoniyatlarga ega uy-joylar qurilib, aholiga imtiyozli ipoteka kreditlari asosida berilishi aholi turmush darajasining yuksalishiga xizmat qilmoqda.

🌟 Qishloq taraqqiy topsa, yurtimiz obod, hayotimiz farovon bo'ladi, degan ezgu maqsad yo'lida olib borilayotgan bunday keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari samarasida bugun qishloqlar shahar bilan bo'ylashmoqda. Shahar va qishloq o'rtasidagi tafovut tobora yo'qolib bormoqda. Joriy yilda bu boradagi ishlar yana ham keng miqyosda davom etayotir.

□ "Dehqonobod" mahallasi fuqarolari tomonidan ichki ko'chalarni shag'allashtirish yuzasidan murojaat qilingan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 408-sonli Qaroriga muvofiq, ichki ko'chalar shag'allashtirildi.

???? - ***Ko'chamizning nosozligi nafaqat mashinalarning, balki aholining ham harakatlanishida, qolaversa, yog'in-sochinli kunlarda ayniqsa, bolalarimizning maktabga borishida qiyinchilik tug'dirayotgan edi, - deydi mazkur ko'chada yashovchi fuqaro Qobiljon Zokirov . - Tumanimiz rahbarlari sa'y-harakatlari natijasida ko'chamiz qayta ta'mirlandi. Bu esa ko'chamizda yashovchi fuqarolarning kayfiyatini ko'tarmoqda.***

* Darhaqiqat, yo'llar ellarni-ellarga, manzillarni-manzillarga tutashtiruvchi muhim vositadir. Davlatimiz tomonidan yo'l qurilishi sohasiga qaratilayotgan jiddiy e'tibor hududlarni obodonlashtirish, yo'lovchi va haydovchilarga birdek qulaylik yaratish, odamlarning mushkuli oson, turmush darajasi esa yanada farovon bo'lishiga xizmat qiladi, albatta.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-12-24 09:59:41